



_____ hokimligi
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ maktabgacha va
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ning

20__-20__-o'quv yilida
9-sinflar uchun ona tili fanidan
IV chorak

DARS
ISHLANMALAR

“TASDIQLAYMAN”

O‘IBDO‘ _____

20__-20__-o‘quv yili uchun tuzilgan 9-sinf ona tili fanidan IV chorak taqvimiy mavzu rejasi

№	Mavzu nomi	Soat	Sana	Izoh
1.	“Hech qachon kech emas” audiomatni tinglab topshiriqlarini bajarish	1		
2.	O‘zlashma va yangi so‘zlar	1		
3.	Yangi so‘zlar imlosi	1		
4.	“Yaponcha usul” matni ustida ishlash	1		
5.	Qo‘shma gaplar va ularning ma’nodoshligi	1		
6.	Muhokama tashkil etish	1		
7.	“Orzular sinovlarga yengilmaydi” matni ustida ishlash	1		
8.	Muammo-yechim essesi yozishda yo‘l qo‘yiladigan xatolar	1		
9.	6-BSB. Esse yozish (25 ball)	1		
10.	BSB tahlili	1		
11.	“Orzu xaritasi” rasmi matni asosida topshiriqlarni bajarish	1		
12.	“Orzu va harakat – kelajakka yo‘l” matni ustida ishlash	1		
13.	“Orzu va harakat – kelajakka yo‘l” matni ustida ishlash	1		
14.	Evfemizmlar	1		
15.	“Tesla kompaniyasiga ishga kirgan birinchi o‘zbek qizi” matni ustida ishlash	1		
16.	Fonetik o‘zgarishlarning mazmunga ta’siri	1		
17.	Shikoyat xati. Qo‘shaloq tinish belgilarining qo‘llanishi	1		
18.	Olmoshlar uslubiyati ustahkamlash	1		
19.	Mustahkamlash	1		
20.	Takrorlash	1		
21.	Takrorlash	1		
22.	4-CHSB (40 ball)	1		
23.	CHSB tahlili			
24.	Yakuniy dars. Ta'til topshiriqlari			

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: “Hech qachon kech emas” audiomatni tinglab topshiriqlarini bajarish

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi:

- dars va mashg‘ulot jarayonlarida faol ishtirok etish;
- o‘zining fuqarolik burchlarini bilish.

Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:

- aniq hisob-kitoblarni bilish, o‘rganilgan mavzu doirasida grammatik jadvallarni o‘qiy olish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

Audiomatnga mos keladigan maqollarni tanlang va yozing. Yana qanday maqollarni tavsiya qilasiz?

1. Intilganga tole yor.
2. Ko‘p qarining ichida bir bola dono bo‘lur, Ko‘p bolaning ichida bir qari bola bo‘lur.
3. Sabr etgan - murodga yetgan.
4. Yo‘ling charog‘on bo‘lsa, Turmushing farovon bo‘lar.
5. Qadam qo‘y asta-asta, Qadam yetguncha ilm ista.
6. Tikansiz gul bo‘lmas, Mashaqqatsiz - hunar.

Berilgan tafsilotlarni matn asosida ketma-ketlikda joylashtiring.

1. Eldoret shahridagi boshlang‘ich maktabga g‘ayrioddiy birinchi sinf o‘quvchisi keldi.

2. Keniya hukumati umumiy bepul sakkiz yillik ta'lim to'g'risidagi qonunni e'lon qildi.
3. Oshqozon saratoni tufayli kekxa o'quvchining sog'lig'i yomonlashdi.
4. BMT minbarida Kimani Maruge ta'lim olish har kimning ajralmas huquqi ekani haqida nutq so'zladi.
5. Ginnesning rekordlar kitobiga "Dunyodagi eng kekxa o'quvchi" sifatida kiritildi.
6. Kimani Maruge haqida "Birinchi sinf o'quvchisi" ("The First Grader") nomli biografik film suratga olindi.

Audiomatn asosida hukmlar to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini aniqlang va yozing.

T/R	HUKMLAR	T/N
1.	Kimani Maruge Britaniya mustamlakachilik davrida ozodlik uchun kurashgan va qiynoqlar natijasida ko'rish qobiliyati yomonlashgan.	***
2.	"Birinchi sinf o'quvchisi" ("The First Grader") kinoasari 2010-yili "Eng yaxshi film" mukofotiga sazovor bo'ldi.	***
3.	Kimaning otasi qashshoqlik sababli farzandlariga ta'lim olish imkoniyatini yaratib bera olmagan.	***
4.	Hayotining so'nggi kunlarida kekxa o'quvchi uy sharoitida ta'lim oldi.	***

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

1. 84 yoshli Kimanida nima uchun o'qish istagi paydo bo'ldi?
2. Kimani Marugening maktab partasiga kelishi nega bu qadar kechikdi?
3. U matematikani o'rganishdan qanday maqsadni ko'zlagan edi?
4. Ta'lim olish yo'lida kekxa o'quvchi nimalarni isbotlashiga to'g'ri keldi?

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Muallif mulohazasining dolzarbligiga yozma munosabat bildiring.

EHTIYOJI MILLAT

Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga poymol bo'lur. 50 sana (yil) muqaddamgi zamonda biz, turkistonlilar, yakka va tanho yashab, boshqalar ila muomala va munosabatimiz yo'q edi... Zamoni sobiqda faqat shari'at bilmoq kifoya etardi. Endi qonun va zakunni bilmoq ham lozimdur... Kontur va rasmiy daftar tutib, kassa ko'rib tijorat etmoq lozim. Ilmi tijorat bilaturgan, buxgalterlik hisobi yuritadurgon boylarimiz-da kerak, ul ham o'zimizdan bir nafar topilmaydur. Hammollikdan bu ishlar yaxshi bo'lsa kerak. Bir necha boyvachchani bilmanki, eng qattiq xizmatlarga giriftor. Sababi - ilmsizlik, holbuki alarni "to'yi"ga atosi besh ming so'm sarf etib edi. Boshqa millatlarni boylari faqir va yetimlar uchun maktab va dorilfununlar soladurlar, faqir va yetimlarni o'qumog'i uchun vaqf "istipendiya"lar ta'yin qilur. Boshqa millat miliunerlari maktabi ila, istipendiyasi-la, idora qilaturgon gazet va majallasi-la, bino qilgan dorulujizin (ayollar universiteti), barpo qilgan jam'iyati xayriyasi-la faxr qiladur. Biznikilar juft oti-la, arobasi-la, to'yi ila va... la faxr etar. Hatto o'z o'g'illarini o'qutmaydurgon boylar bordur. Bu ketishni oxiri yamondur, o'qumoq, o'qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamoniyy meros qolsun.

Mahmudxo'ja Behbudiy, "Samarqand" gazetasi, 1913-yil 12-iyul

O'IBDO': _____ (imzo) _____ (sana)

Sana:				
Sinf:				

Mavzu: O‘zlashma va yangi so‘zlar

Darsning maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha yangi bilimlar berish, ona tili tilidagi qoidalar va to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarda berilgan rasmlar hamda savollar ustida ishlash orqali vatanga muhabbat hissini uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, yozma savodxonligini oshirish.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan tayanch kompetensiyalar elementlari:

Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi:

– eshitilgan yoki o‘qilgan matnlardan zarur ma’lumotlarni izlab topa olish, saralash.

O‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi :

– doimiy ravishda mustaqil o‘qib-o‘rganish, bilimni oshirib borish, kognitivlik (ijodiylik) ko‘nikmasini shakllantirish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi, bilimlarni mustahkamlovchi.

Dars uslubi: tushuntirish, suhbat, tezkor savol – javob, amaliy mustaqil ishlar bajarish, munozara, muammoli topshiriq, kichik guruhlarda ishlash, ko‘rgazmali va boshqalar.

Dars metodi: guruhlarda ishlash, “kim epchil-u, kim chaqqon”, “ko‘rsam tezroq o‘rganaman” shu kabi metodlar.

Dars jihozi: mavzuga oid rasm, ko‘rgazmalar va tarqatma materiallar, o‘quv qurollari, elektron materiallar.

Darsning borishi:

№	Bo‘limlar	Vaqt
1	Tashkiliy qism	3 daqiqa
2	O‘tgan mavzuni mustahkamlash	5 daqiqa
3	Yangi mavzu bayoni	15 daqiqa
4	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 daqiqa
5	O‘quvchilarni rag‘batlantirish. Darsni yakunlash.	10 daqiqa
6	Uyga vazifa	2 daqiqa
Jami		45 daqiqa

I. Tashkiliy qism: a) Salomlashish. b) Davomatni aniqlash.

II. Uyga vazifani so‘rash: a) Savol – javob o‘tqazish. b) Topshiriqlarni tekshirish.

III. Yangi mavzu bayoni:

“Hech qachon kech emas” audiomatnidan olingan quyidagi fikr yuzasidan mulohaza yuriting. Ayting-chi, siz ta’lim olish huquqingizdan o‘rinli foydalanyapsizmi?

BMT minbarida Kimani Maruge ta’lim olish harkimning, yoshi nechada bolishidan qat’i nazar, ajralmas huquqi ekani haqida nutq so‘zladi. U o‘z harakati shunchaki o‘qish va yozishni o‘rganish istagi emas, balki bu - ozodlik kaliti, e’tiqod va adolat uchun kurash, yoshlikda erisha olmagan orzuini ro‘yobga chiqarish yo‘lidagi qat’iy qadam ekanini ta’kidladi.

O‘zlashma so‘z - ma’lum ijtimoiy-tarixiy voqealar, savdo va madaniy aloqalar tufayli bir tiidan ikkinchi tilga o‘tgan so‘z. Masalan, o‘zbek tiliga arab tilidan adabiyot, axloq, kitob, muallim; fors tilidan barg, tilla, shabnam; rus tili va u orqali Yevropa tillaridan bank, parta, gazeta, reklama, limon kabi so‘zlar o‘zlashgan. Bu kabi so‘zlar asta-sekin qabul qiluvchi til qonuniyatlariga bo‘ysunishi natijasida uning begonaligi sezilmay qoladi.

Fan va texnika yangiliklari, kundalik turmushda ro'y berayotgan o'zgarishlar sababli tilga kirib kelayotgan yangi so'zlar fanda neologizmlar deb ataladi. Masalan, tyutor, heshteg, podkast.

Neologizm va o'zlashma so'z o'rtasida farq mavjud. O'zlashma so'zlar tilimizga singib ketgan va lug'atlarimizdan joy olgan qatlam hisoblansa, neologizmlar tilimizga yangi kirib kelgan va hali keng yoyilmagan so'zlardir. Hozir neologizmlar asosan yoshlar nutqida ko'pchaydi. Bubirliklardan foydalanishda ham me'yor bo'lishi kerak. Fan-texnika taraqqiyoti natijasida o'zbek tiliga kirib kelgan lug'aviy birliklar qatorini davom ettiring va ularning yozuvda qanday aks etishi borasida takliflaringizni yozing.

Namuna startup – startap

Blogger, smartphone, TikTok, podcast, brand, Facebook, organizer, WhatsApp, YouTube.

Audiomatndan olingan quyidagi o'zlashma so'zlarni izohi bilan moslashtiring.

1. Veterinariya	A) Fuqarolarga davlat yoki boshqa subyektlar qonunda belgilangan hollarda muntazam to'laydigan to'lovlar, ijtimoiy ta'minot shakli
2. Rekord	B) Insonni maqsad sari harakat qilishga undovchi ichki yoki tashqi sabablar
3. Pensiya	D) Inson hayotining batafsil tavsifi, tarjimai holi
4. Motivatsiya	E) Ish, faoliyatning biror sohasida, sport musobaqalarida erishilgan eng katta muvaffaqiyat, eng yaxshi natija, eng yuqori ko'rsatkich
5. Biografiya	F) Aniq mantiqiy mushohadalarga asoslangan bilimlar haqidagi fan
6. Matematika	G) Hayvonlarning kasalliklari, ularning oldini olish hamda davolash bilan shug'ullanadigan soha

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash

Guruhlarga bo'lining va namuna asosida so'zlarni ikkiga ajrating.

Rieltor, xaker, televizor, parlament, xit-parad, avtobus, sheyping, shou, birja, asfalt, ofis, genetika, avatar, aeroport, elektromobil, bankomat, provayder, spiker, parlament, keshbek.

O'zlashma so'zlar	Yangi so'zlar
televizor, parlament...	makler, xaker...
***	***

V. Darsni yakunlash: o'quvchilarni yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag'batlantirish.

VI. Uyga vazifani e'lon qilish: Lug'at yordamida neologizmlar jadvalini to'ldiring.

Atama	Taxminiy muqobili	Aloqador soha
blekaut	elektr tarmog'idan uzilish, elektr o'chishi	energetika
dron	***	***
kriptoalyuta	***	***
promokod	***	***
rieltor	***	***
kibersport	***	***
detoks	***	***
keshbek	***	***

vab-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com. vab-sayiti orqali o'zingiz uchun kerakli hujjatlarni yuklab olishingiz mumkin.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi

52 listdan iborat ona tili fanidan 9-sinf IV chorak konspektini to'loq holda olish uchun telegramdan yozing.



Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: **UZCARD *880*9860230104973329*summa#**

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.
To'liq holda olganingizdan so'ng:
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.
Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.
Internet orqali vab-saytlarga joylamang.
Kanal va gruppalarga tarqatmang.

OMONATGA

HIYONAT QILMANG.

***Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda maktablar uchun quydagi hujjatlar mavjud.***

- 1. 1-11-Sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari**
- 2. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari**
- 5. Ustama hujjatlari**
- 6. 1-11-Sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar va tezislar**
- 7. 1-11-Sinflar uchun Ish rejalar (Taqqim mavzu rejalar)**
- 8. Maktab ish hujjatlari**
- 9. Direktor ish hujjatlari**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari**
- 11.O'IBDO' ish hujjatlari**
- 12.Psixolog hujjatlari**
- 13.Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari**
- 14.Kutubxona mudirasi ish hujjatlari**
- 15.Besh tashabbus hujjatlari**
- 16. Ommalashtirish uchun dars ishlanmalar va ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar**